

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

INOYATOVA SOXIBA FAZILOVNA

**FUQAROLIK HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNI
RIVOJLANTIRISH PARADIGMASI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Content of the doctoral (DSc) dissertation abstract

Inoyatova Soxiba Fazilovna

Fuqarolik huquqlarini himoya qilishni rivojlantirish paradigmasi 3

Иноятова Сохиба Фазиловна

Парадигма развития защиты гражданских прав 35

Inoyatova Soxiba Fazilovna

The paradigm of civil rights protection development 69

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 74

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

INOYATOVA SOXIBA FAZILOVNA

**FUQAROLIK HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNI
RIVOJLANTIRISH PARADIGMASI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Yu315 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNET» Axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Okyulov Omanbay
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ro‘zinazarov Shuxrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Nasriyev Ilxom Ismoilovich
yuridik fanlar doktori, professor

Quldashev Nuriddin Abdug‘aniyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 31 iyul soat 12.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (998971) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1410-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 16 iyul kuni tarqatildi.

(2025-yil 16 iyul dagi 80-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

D.Yu. Xabibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy dunyoda iqtisodiy munosabatlarning raqamlashuvi, huquqiy jarayonlarning globallashuvi va fuqarolik muomalasining yangi obyektlari paydo bo'lishi ta'sirida fuqarolik huquqlarini himoya qilish tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, xususiy huquq sohasidagi nizolar hajmi har yili 12-15 foizga oshib bormoqda, ularning 65 foizi muqobil usullar, shu jumladan xalqaro tijorat arbitraji orqali hal etiladi¹. Xalqaro savdo palatasi (ICC) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi besh yil ichida arbitraj ishlari soni 34 foizga oshgan², bu fuqarolik huquqlarini himoya qilishning yurisdiksiyadan tashqari shakllariga bo'lgan ishonchning ortib borayotganini ko'rsatadi. Raqamli aktivlarni himoya qilish alohida dolzarblik kasb etmoqda, DeFi Pulse tadqiqotiga ko'ra, markazlashtirilmagan moliyaviy protokollarda bloklangan aktivlarning umumiy qiymati 200 milliard AQSH dollaridan ortadi³, bu esa ularni himoya qilishning tegishli huquqiy mexanizmlariga kuchli ehtiyojni yuzaga keltiradi.

Jahonda texnologik inqiloblar sharoitida fuqarolik huquqlarini himoya qilishning yangi paradigmalarini ishlab chiqishga bag'ishlangan keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Yetakchi huquqiy maktablar "raqamli mulk huquqlari" (Digital Property Rights) konsepsiyalarini ishlab chiqish, kibermakonda o'zini o'zi himoya qilish institutlarini takomillashtirish, an'anaviy yurisdiksiya va innovatsion texnologik vositalarni uyg'unlashtirgan gibrid himoya mexanizmlarini yaratishga e'tibor qaratmoqda. Blokcheyn texnologiyalari, smart-kontraktlar, o'zaro almashtirib bo'lmaydigan tokenlar (NFT)ning huquqiy tabiati va ularning an'anaviy fuqarolik huquqi institutlariga ta'sirini o'rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Yevropalik tadqiqotchilar ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalangan holda ma'naviy zararni baholash metodologiyasini faol ishlab chiqmoqdalar, ingliz-amerika doktrinasi esa raqamli muhitda inson qadr-qimmatini himoya qilish uchun "dignitary torts" konsepsiyasini rivojlantirmoqda.

Respublikamizda ham keng ko'lamli huquqiy islohotlar va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida fuqarolik huquqlarini himoya qilish tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xususiy mulk va investorlar huquqlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlaydigan zamonaviy huquqiy tizimni yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan⁴. "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi yangi Qonunning qabul qilinishi milliy qonunchiligimizda birinchi marta mulk huquqining o'zini o'zi himoya qilishini mustaqil institut sifatida ajratib ko'rsatdi

¹ URL: <https://icsid.worldbank.org/sites/default/files/publications/ICSID-AR2024-WEB.pdf>

² URL: <https://www.erdem-erdem.av.tr/en/insights/icc-dispute-resolution-statistics-2023#:~:text=The%20number%20of%20new%20cases,2016%20and%20946%20in%202020.>

³ URL: <https://docs.defipulse.com/metrics/tvl>

⁴ 2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son // Qonunchilikning milliy ma'lumotlar bazasi. 2022-y. 29-yanvar. № 06/22/60/0082.

va yangi tahrirdagi Fuqarolik kodeksi loyihasini tayyorlash fuqarolik huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini tubdan takomillashtirishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2022), O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (2012), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni, 2022-yil 24-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–198-son Farmoni, 2018-yil 27-iyuldagi “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5490-son Farmoni, 2019-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F–5464-son Farmoyishi hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishni rivojlantirish paradigmasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, xususan, Garvard huquq maktabi, Yel huquq maktabi, Oksford universiteti, Kembrij universiteti, Stenford universiteti huquq maktabi, London iqtisodiyot maktabi, Sorbonna (Parij), Maks Plank qiyosiy va xalqaro xususiy huquq instituti (Gamburg), Tokio universiteti, Singapur Milliy universiteti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universitetida olib borilmoqda.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Garvard huquq maktabida raqamli muhitda “dignitary torts” va “ma‘naviy zararni qoplash” tushunchalari, Yel huquq maktabida huquqiy himoyada raqamli obyektlar va blokcheyn texnologiyalarining huquqiy subyektlilik nazariyasi, Oksford universitetida fuqarolik huquqlarining yangi obyektlari va kriptoaktivlarni himoya qilishning huquqiy jihatlari, Kembrij universitetida nizolarni hal qilishning muqobil usullari va xalqaro tijorat arbitrajini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Stenford universiteti huquq maktabida raqamlashtirish sharoitida

¹ Dissertatsiya mavzusiga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://mitsloan.mit.edu/>, <https://www.hbs.edu/>, <https://www.oii.ox.ac.uk/>, <https://www.cam.ac.uk/>, <https://nus.edu.sg/>, <https://www.u-tokyo.ac.jp/en/>, <https://en.snu.ac.kr/>, <https://www.hku.hk/>, <https://english.pku.edu.cn/>, <https://www.msu.ru/>, <https://www.spbu.ru/> va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

o'zini o'zi himoya qilishning huquqiy tartibga solinishi, London iqtisodiyot maktabida fuqarolik huquqlarini himoya qilishning turli usullari samaradorligining iqtisodiy tahlili, Sorbonnada shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilishning qiyosiy-huquqiy jihatlari tadqiq etilgan. Osiyoda Singapur Milliy universitetida xalqaro arbitraj va mediatsiyani rivojlantirish, Tokio universitetida raqamli iqtisodiyotda intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy jihatlari tadqiq etilmoqda. Maks Plank institutida fuqarolik huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa yondashuvlarini unifikatsiya qilish va xalqaro xususiy huquqni uyg'unlashtirish bo'yicha fundamental tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar zamonaviy huquqiy tartibga solishning turli jihatlari qamrab oladi. Tadqiqotning asosiy yo'nalishlari raqamlashtirish sharoitida huquqlarni himoya qilishning yangi paradigmlarini ishlab chiqish, o'zini o'zi himoya qilish institutlari va nizolarni hal qilishning muqobil usullarini takomillashtirish, raqamli aktivlar va NFTni huquqiy himoya qilish, xalqaro tijorat arbitrajini rivojlantirish, ma'naviy zararni qoplash institutini modernizatsiya qilish, internet makonida tasvirga bo'lgan huquqni himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, "raqamli mulk huquqi" va "kengaytirilgan mulk" tushunchalarini shakllantirish bilan bog'liq.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ushbu tadqiqotga doir, ya'ni fuqarolik huquqlarini himoya qilishni kompleks o'rganish masalasi hali alohida maxsus tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilmagan. Himoya usullarining ayrim masalalari X. Raxmonqulov, I.B. Zokirov, I. Anortayev, O. Okyulov, D.M. Karaxodjayeva, N.F. Imomov, I.R. Rustambekov, B.K. Xodjayev, J.I. Babayev, J.I. Yuldashev, B.R. Topildiyev, K.M. Mexmonov, Sh. Asyanov, U.Sh. Sharaxmetova, L.M. Burxanova, E.T. Musayev, V.Yo. Ergashev, K.K. Rashidov, I.I. Nasriyev, N. Egamberdiyeva, N. Ashurova, D. Axrarova, F.X. Otaxonov, U.M. Maxmudxodjayeva, E.X. Egamberdiyev, Yu.X. Satvaldiyeva, D. Yeshanova va boshqa bir qator mahalliy mualliflarning ilmiy ishlarida qisman va ma'lum darajada ko'rib chiqilgan¹.

Tadqiqot predmeti doirasida MDH davlatlarida M.K. Suleymenov, A.P. Sergeev, V.V. Vitryanskiy, A.V. Milkov, T.I. Illarionova, Yu.G. Basin, B.I. Puginskiy, G.P. Arefev, V.P. Gribanov, A.A. Erdelevskiy, D.N. Latipov, A.A. Pavlov, V.V. Butnev, A. Bazilevich, V. Ryabina, Ye. Redko, xorijiy mamlakatlarda esa T. Kuhn, G. Calabresi, A.D. Melamed, P. Cane, J. Goldberg, B. Zipursky, A. Walch, Z. Pirim, R. Post, D. Pritchard, H. Hansmann, R. Kraakman, A. Schwartz, M. Blair, L. Stout, S. Worthington, H. Collins, S. Gardner, M. Dixon, Ch. Mitchell kabi olimlarning tadqiqotlari mavjud².

Biroq mamlakatimizda fuqarolik huquqining alohida institutlarini rivojlantirish, sud tizimi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bilan bir qatorda, raqamlashtirishning zamonaviy muammolari sharoitida fuqarolik huquqlarini himoya qilishni rivojlantirish paradigmasi nazariy yondashuvlar, huquqiy tamoyillar va amaliy mexanizmlarning yaxlit tizimi sifatida kompleks tadqiq etilmagan.

¹ Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

² Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetining ishchi guruhida ishtirok etish va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish rejalariga muvofiq yangi tahrirdagi Fuqarolik kodeksi loyihasini tayyorlash ishlarini olib borish doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi raqamlashtirish va huquqiy jarayonlar globallashtirishning zamonaviy tahdidlari sharoitida fuqarolik huquqlarini himoya qilishni rivojlantirish paradigmasining ilmiy-nazariy asoslarini hamda ushbu sohani huquqiy tartibga solish va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nazariy yondashuvlar, huquqiy tamoyillar va amaliy mexanizmlar tizimi sifatida fuqarolik huquqlarini himoya qilish paradigmasining mohiyati va mazmunini ochib berish;

fuqarolik huquqlarini himoya qilish institutining rivojlanish evolyutsiyasini tahlil qilish va uni zamonaviy transformatsiya qilishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

fuqarolik huquqlarini himoya qilishning shakl va usullari nisbatining nazariy asoslarini tadqiq etish va ularning ilmiy tasnifini ishlab chiqish;

fuqarolik huquqlarini himoya qilishning zamonaviy usullarini amalda qo'llash va ularni takomillashtirish muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish;

ijtimoiy munosabatlarni raqamlashtirish sharoitida fuqarolik huquqlarini himoya qilish usuli sifatida ma'naviy zararni qoplash xususiyatlarini tadqiq etish;

fuqarolik huquqlarining yangi obyektlarini (raqamli aktivlar, NFT, sun'iy intellekt faoliyati natijalari) himoya qilishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish;

fuqarolik huquqlarini himoya qilish shakli sifatida o'zini o'zi himoya qilishning mohiyati va huquqiy tabiatini unga qo'yiladigan talablar nuqtayi nazaridan o'rganish;

huquqni qo'llash amaliyotida o'zini o'zi himoya qilishni qo'llashning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish;

fuqarolik huquqlarini himoya qilishning samarali shakli va uning moddiy-huquqiy asoslari sifatida xalqaro tijorat arbitrajini tahlil qilish;

fuqarolik huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlarini va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini fuqarolik muomalasi subyektlarining fuqarolik huquqlarini himoya qilish sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini fuqarolik huquqlarini himoya qilishni tartibga soluvchi huquqiy normalar, huquqni qo'llash va sud amaliyoti, xorijiy davlatlar qonunchiligi va xalqaro hujjatlar, yuridik fanda mavjud bo'lgan fuqarolik huquqlarini himoya qilishni rivojlantirish paradigmasiga oid konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik va tizimlilik, analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil, formal-yuridik metod, prognozlash, statistik ma'lumotlar

tahlili, normativ-huquqiy va amaliy tahlil, sotsiologik metod kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'yinlar tashkilotchisi ularni belgilangan muddatda o'tkazishdan bosh tortgan taqdirda, o'yinlar ishtirokchilari ularning tashkilotchisidan o'yinlarning bekor qilinishi yoki ularning muddati ko'chirilishi tufayli yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli ekanligi asoslantirilgan;

iste'molchilarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli bo'lgan nuqsonli tovar (ish, xizmat) hamda ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan moddiy zarar va ma'naviy ziyonni to'liq hajmda qoplashni talab qilishga haqli ekanligi asoslantirilgan;

ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reestriga qonunga xilof yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar kiritilishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlar ushbu ma'lumotlarga ishonib harakat qilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha hududiy maqsadli jamg'armalar mablag'lari hisobidan qoplanishi asoslantirilgan;

davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari va xizmatchilarining qonunga xilof deb topilgan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan hamda sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan zararlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha hududiy maqsadli jamg'armalar mablag'lari hisobidan qoplanishi asoslantirilgan;

jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha respublika va hududiy maqsadli jamg'armalar mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqish zarurligi asoslantirilgan;

har bir shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy siri, sha'ni va qadr-qimmatining himoya qilinishi, shaxsiy ma'lumotlarining muhofaza etilishi, noto'g'ri ma'lumotlarni tuzattirishni, o'zi haqida qonunga xilof ravishda to'plangan yoki boshqa huquqiy asosga ega bo'lmagan ma'lumotlarni yo'q qilishni talab qilish huquqiga ega ekanligi asoslab berilgan, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxs ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan, o'zining sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi noto'g'ri ma'lumotlarga raddiya berilishini tahririyatdan talab qilishga haqli ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fuqarolik huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari va boshqa qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish asoslantirilgan;

fuqarolik huquqlarini himoya qilishning huquqiy tabiatini tushunishning konseptual asosi sifatida mualliflik “huquqni qo‘llash nazariyasi” va Himoya qilish bo‘yicha huquqiy munosabatlarni tartibga solish konsepsiyasi ishlab chiqilgan;

ma’naviy ziyonni qoplash miqdorini aniqlash uchun taxminiy narx belgilash tizimini yaratish va yuridik shaxslar uchun ishchanlik obro‘sigga putur yetkazish institutini joriy etish zarurligi asoslantirilgan;

xorijiy tajribani hisobga olgan holda raqamli aktivlar uchun yangi huquqiy toifalarni yaratish va ularni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan;

mulkiy zararni qoplash va mulk huquqida o‘zini o‘zi himoya qilish institutini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

fuqarolik huquqlarini himoya qilishning muqobil shakli sifatida xalqaro tijorat arbitrajini rivojlantirish istiqbollari asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro huquqiy hujjatlar, sud va arbitraj amaliyoti, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyotining statistik ma’lumotlari kompleks tahliliga asoslangan. Olingan natijalar vakolatli davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan, ularning natijalari yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning rivojlanish paradigmasini ilmiy-nazariy tahlil qilish, mualliflik “huquqni qo‘llash nazariyasi” va Himoya qilish bo‘yicha huquqiy munosabatlarni tartibga solish konsepsiyasini ishlab chiqish sivilistik fan rivojiga qo‘shilgan salmoqli hissadir. Ishning amaliy ahamiyati uning qoidalari va xulosalaridan fuqarolik huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilikni rivojlantirish va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, fuqarolik huquqlarini himoya qilish, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi, arbitraj, intellektual mulkni himoya qilish sohasidagi qonunchiligini takomillashtirish, “Fuqarolik huquqi”, “Nizolarni hal qilishning muqobil usullari” fanlarini o‘qitish va ushbu fanlar bo‘yicha darsliklar, qo‘llanmalar, ma’ruzalar matnlarini yaratish, o‘quv dasturlarini, ilmiy-tadqiqot ishlarini tuzish va fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha keyingi ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot asosida olingan natijalar quyidagilarda o‘z ifodasini topgan:

o‘yinlar tashkilotchisi ularni belgilangan muddatda o‘tkazishdan bosh tortgan taqdirda, o‘yinlar ishtirokchilari ularning tashkilotchisidan o‘yinlarning bekor qilinishi yoki ularning muddati ko‘chirilishi tufayli yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli ekanligi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–1057-son Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi Fuqarolik kodeksi 984-moddasining

to'rtinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 3-iyundagi No3/dn-115-son dalolatnomasi). Mazkur taklif o'yin ishtirokchilarining mulkiy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash va ularning tashkilotchilarining mas'uliyatini oshirishga xizmat qilgan;

iste'molchilarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli bo'lgan nuqsonli tovar (ish, xizmat) hamda ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan moddiy zarar va ma'naviy ziyonni to'liq hajmda qoplashni talab qilishga haqli ekanligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 23-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1021-son Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 221-I-son Qonuni 4-moddasi birinchi qismining 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 3-iyundagi No3/dn-115-son dalolatnomasi). Mazkur taklif qoplanadigan zarar hajmini kengaytirish va iste'molchilar huquqlarini insofsiz ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilardan himoya qilishni kuchaytirishga asos bo'lib xizmat qilgan;

ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reestriga qonunga xilof yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar kiritilishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlar ushbu ma'lumotlarga ishonib harakat qilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha hududiy maqsadli jamg'armalar mablag'lari hisobidan qoplanishi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-yanvardagi "Mulq huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 9-son qarorining 2-bandi "b" kichik bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 5-fevraldagi 12-16-8-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif davlat reestrlaridagi noaniqliklar oqibatida yetkazilgan mulkiy zararni qoplash mexanizmlarini takomillashtirish va fuqarolik muomalasining insofli ishtirokchilari huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishga xizmat qilgan;

davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari va xizmatchilarining qonunga xilof deb topilgan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan hamda sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan zararlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha hududiy maqsadli jamg'armalar mablag'lari hisobidan qoplanishi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-yanvardagi "Mulq huquqining

daxlsizligini ishonchli himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 9-son qarorining 2-bandi "b" kichik bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 5-fevraldagi 12-16-8-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif davlat organlarining noqonuniy xatti-harakatlaridan yetkazilgan zararni qoplashning samarali tizimini yaratishga hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qilgan;

jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha respublika va hududiy maqsadli jamg'armalar mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqish zarurligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-yanvardagi "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 9-son qarorining 4-bandi "g" kichik bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 5-fevraldagi 12-16-8-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar kompensatsiya mexanizmlarini huquqiy tartibga solishning kompleks tizimini yaratishga va fuqarolik muomalasi subyektlarining mulkiy huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

har bir shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy siri, sha'ni va qadr-qimmatining himoya qilinishi, shaxsiy ma'lumotlarining muhofaza etilishi, noto'g'ri ma'lumotlarni tuzattirishni, o'zi haqida qonunga xilof ravishda to'plangan yoki boshqa huquqiy asosga ega bo'lmagan ma'lumotlarni yo'q qilishni talab qilish huquqiga ega ekanligi asoslab berilgan, shuningdek yuridik yoki jismoniy shaxs ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan, o'zining sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi noto'g'ri ma'lumotlarga raddiya berilishini tahririyatdan talab qilishga haqli ekanligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi 32-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining fuqarolik ishlari bo'yicha ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1992-yil 19-iyundagi "Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo'llash to'g'risida"gi 5-son qarorining 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 3-iyundagi 08/261-25-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflar fuqarolarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilishga kompleks yondashuvni shakllantirish hamda sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish bo'yicha sud amaliyotini takomillashtirishni ta'minladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda (5 ta xalqaro, 2 ta respublika) ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish, shu jumladan, 3 ta monografiya, 17 ta ilmiy maqola (10 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 256 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning "**Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning ilmiy-metodologik tavsifi**" deb nomlangan birinchi bobi fuqarolik huquqlarini himoya qilish institutining kompleks nazariy-metodologik tadqiqotiga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu huquqiy institutning paradigmal rivojlanishi, uning tushunchaviy apparati va evolyutsiyasi masalalari ko'rib chiqilgan, shuningdek huquqiy munosabatlar transformatsiyasi sharoitida himoya usullari tasnifi va umumiy nazariy ta'limotlarni hisobga olgan holda fuqarolik huquqlarini himoya qilishning zamonaviy paradigmasining asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan.

Dissertant milliy sivilistikada Tomas Kunning klassik tushunchasidagi fuqarolik huquqlarini himoya qilishning shakllangan paradigmasi mavjud emasligini asoslagan, chunki mavjud nazariy ishlanmalar fragmentar xarakterga ega bo'lib, yaxlit ilmiy konsepsiyani tashkil etmaydi. Dissertatsiyada hozirgi vaqtda fuqarolik muomalasi subyektlarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini ta'minlashning nazariy yondashuvlari, huquqiy prinsiplari va amaliy mexanizmlari tizimi sifatida fuqarolik huquqlarini himoya qilishning konseptual asoslarini shakllantirish to'g'risida so'z yuritilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida mustahkamlangan huquqlarni himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy prinsiplari, Fuqarolik kodeksining 2-bobida nazarda tutilgan himoya qilish usullari tizimi, mamlakatimiz sivilist olimlarining nazariy ishlanmalari, fuqarolik huquqlarini himoya qilishga oid normalarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti, shuningdek xalqaro standartlar va milliy sharoitlarga moslashtirilgan xorijiy tajriba asoslantirilgan.

Muallifning fikricha, zamonaviy sivilistikada mavjud bo'lgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish nazariyalari – funksiyalar nazariyasi, o'lchovlar nazariyasi, faoliyat nazariyasi, huquqiy vositalar nazariyasi va huquqiy munosabatlar nazariyasini tanqidiy tahlil qilish ularning metodologik jihatdan

cheklanganligini va ushbu institutning huquqiy tabiatini har tomonlama tushuntirishning imkoni yoʻqligini koʻrsatadi. Koʻrsatib oʻtilgan fragmentar yondashuvlarga qarshi dissertant mualliflik “huquqni qoʻllash nazariyasi”ni ishlab chiqdi, unga koʻra fuqarolik huquqlarini himoya qilish fuqarolik muomalasi subyektlari tomonidan buzilgan huquqni majburiy yoki ixtiyoriy ravishda, vakolatli organlar yordamida yoxud ularning ishtirokisiz tiklash toʻgʻrisidagi normalarni qoʻllashdan iborat boʻlib, bu mazkur institutning turli jihatlarini yagona konseptual asos doirasida birlashtirish va zamonaviy doktrinada mavjud boʻlgan nazariy qarama-qarshiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Dissertant tomonidan taklif etilgan “huquqni qoʻllash nazariyasi”ning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: fuqarolik huquqlarini himoya qilish huquqni qoʻllashga nisbatan fuqarolik huquqining muhim, bazaviy va universal instituti hisoblanadi; davlatning shaxs huquqlarini himoya qilishga qaratilgan funksiyasidan kelib chiqadi va dastlab konstitutsiyaviy, keyinchalik xususiy-huquqiy xususiyatga ega; manzilli xususiyatli va muayyan shaxsdan kelib chiqadigan salbiy taʼsirni bartaraf etishga qaratilgan; huquq buzilgan yoki shunday buzilish xavfi mavjud boʻlgan taqdirdagina qoʻllaniladi; buzilgan huquqni tiklashga qaratilgan, ammo fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyektini jazolashga qaratilgan emas; qonunda belgilangan shaklda vakolatli organlar orqali yoki ularsiz amalga oshiriladi. Ushbu nazariya asosida dissertant davlat nazorati va oʻzini oʻzi tartibga solish institutlari tomonidan tartibga solish bilan birgalikda himoyaning xususiy-huquqiy mexanizmlarini kuchaytirishning muvozanatli huquqni qoʻllashga asoslangan Himoyaga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solish konsepsiyasini taklif etgan.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish institutining tarixiy evolyutsiyasini oʻrganish boʻyicha oʻtkazilgan tahlil asosida dissertant Oʻzbekiston huquqiy tizimi kontekstida uning rivojlanishining uchta asosiy nazariyasini ajratib koʻrsatgan: diniy-axloqiy meʼyorlar, odat huquqi va shaxsiy javobgarlik tamoyilining ustunligi bilan tavsiflangan anʼanaviy huquq nazariyasi (qadimgi davrdan XX asr boshlarigacha), bunda himoya instituti adolat, buzilgan muvozanatni tiklash va huquqbuzarning shaxsiy javobgarligi tamoyillariga asoslangan; davlat manfaatining xususiy manfaatdan ustunligi, himoya usullarini tanlashda dispozitivlikni cheklash va huquqiy himoyaning preventiv funksiyasiga urgʻu berish bilan ajralib turadigan ommaviy-huquqiy tartibga solish nazariyasi (1917–1991 yillar); fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tengligini tan olish, dispozitiv asoslarni kengaytirish va fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullarining xilma-xilligiga asoslangan xususiy-huquqiy avtonomiya nazariyasi (1991-yildan hozirgi kungacha).

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish instituti evolyutsiyasining asosiy tendensiyalari huquqiy tizimlarning oʻzgarishidan qatʼi nazar, himoya qilishning asosiy tamoyillari vorisiyligi, himoyaning jamoaviy shakllaridan individual shakllariga oʻtish, himoya predmetining mulkiy huquqlardan nomoddiy neʼmatlargacha kengayishi, shuningdek ixtisoslashtirilgan huquqiy tartib-taomillarni yaratish orqali himoya qilish mexanizmlarining institutsionallashuvi ekanligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyada fuqarolik huquqlarini himoya qilishning zamonaviy paradigmasi

huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan reaktiv modeldan huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan proaktiv modelga o'tish bilan tavsiflanishi iqtisodiy munosabatlarning raqamlashuvi, huquqiy jarayonlarning globallasuvi va xavf-xatarlar ortib borayotgan sharoitda fuqarolik muomalasining barqarorligini ta'minlash zarurati bilan bog'liqligi isbotlangan. Dissertantning fikricha, ushbu transformatsiya fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullarini tushunishga an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni va ularni statik huquqiy konstruksiyalar sifatida emas, balki o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslasha oladigan dinamik vositalar sifatida ko'rib chiqishni talab qiladi.

Dissertant qo'llaniladigan choralarning huquqni vujudga keltiruvchi xususiyatining funksional mezoni asosida fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullarining yangi tasnifini ishlab chiqish zarur, degan xulosaga kelgan va himoya qilish usullarini mustaqil va hosilaviy (qo'shimcha) turlarga ajratishni taklif etgan. Mustaqil usullar deganda, huquqbuzarlik yoki uning oqibatlarini bevosita bartaraf etishga qaratilgan va himoyaning boshqa usullariga bog'liq bo'lmagan holda qo'llanilishi mumkin bo'lgan, yangi huquqiy holatni vujudga keltiradigan huquqiy vositalar tushunilsa, hosila (qo'shimcha) usullar deganda, mustaqil usullarning samaradorligini kuchaytiradigan yoki ularning amalga oshirilishini ta'minlaydigan, faqat vujudga kelgan huquqiy holatni to'ldiradigan yoki aniqlashtiradigan huquqiy choralar tushuniladi.

Muallif zararni qoplash to'g'risidagi zamonaviy doktrinaning to'liq qoplash tamoyilidan oqilona qoplash tamoyiliga transformatsiyasini belgilab bergan, bu esa fuqarolik-huquqiy oqibatlarining oldindan bashorat qilinishini ta'minlaydi va muomala ishtirokchilarining insofli xulq-atvorini rag'batlantiradi. Dissertatsiyada ushbu tendensiya qoplanadigan zararlar miqdorini cheklash institutlari, zarar miqdori prezumpsiyasi va kompensatsiyaning muqobil usullarini rivojlantirishda o'z aksini topishi, bu esa fuqarolik huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi milliy qonunchilikni tegishli ravishda takomillashtirishni taqozo etishi isbotlangan. Muallif Fuqarolik kodeksining 11-moddasi ikkinchi qismini "himoya qonunda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ham amalga oshirilishi mumkin"dan "himoya qonunda taqiqlanmagan boshqa usullar bilan ham amalga oshirilishi mumkin"ga o'zgartirish orqali fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari to'g'risidagi ta'rifni konstitutsiyaviy prinsiplarga muvofiqlashtirish zarurligini asoslab, fuqarolik huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va kodeks normalarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiqlashtiradi.

Dissertatsiyaning "**Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullarining sivilistik-huquqiy asoslari**" deb nomlangan ikkinchi bobida fuqarolik huquqlarini himoya qilish shakllari va usullari nisbatining nazariy asoslari, fuqarolik huquqlarini himoya qilishning zamonaviy usullarini amaliyotda qo'llash va ularni takomillashtirish muammolari, fuqarolik huquqlarini himoya qilish usuli sifatida ma'naviy ziyonni qoplashning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek ijtimoiy munosabatlarni raqamlashtirish va huquqiy paradigmani o'zgartirish sharoitida fuqarolik huquqlarining yangi obyektlarini himoya qilishning zamonaviy tendensiyalari atroflicha tahlil qilingan.

Muallif fuqarolik huquqlarini himoya qilish shakllari va usullarini ularning

huquqiy tabiati va huquqni himoya qilish mexanizmidagi roli mezoni bo'yicha funksional farqlashni asoslab bergan, bu esa terminologik chalkashliklardan qochish va huquqiy himoya qilish mexanizmini aniq tushunishni ta'minlaydi. Himoya usuli huquqbuzarga ta'sir ko'rsatish va buzilgan huquqni tiklashning aniq vositasini ifodalovchi, majburlov xususiyatiga ega bo'lgan va huquqqa ega shaxsning huquqiy holatini bevosita tiklashga qaratilgan moddiy-huquqiy kategoriya bo'lsa, himoya shakli qonunda belgilangan tartib-taomillar orqali himoya usullarini qo'llashning normativ mustahkamlangan tartibini belgilovchi protsessual kategoriyadir. Ushbu chegaralash bir xil himoya usuli turli shakllarda amalga oshirilishi mumkinligini, bir xil himoya shakli esa turli xil himoya usullarini qo'llashni o'z ichiga olishi mumkinligini tushunishga imkon beradi.

Dissertantning fikricha, himoyaning fanda mavjud ta'riflarini tahlil qilish ularning huquqiy tabiatini tushunishda birlik yo'qligini ko'rsatadi, bu esa huquqni qo'llash amaliyotida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi va himoyaning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni qiyinlashtiradi. Birinchi yondashuv "himoya tartibi" orqali protsessual jihatga e'tibor qaratadi, bu esa himoya shaklini faqat yurisdiksiya organlari faoliyati bilan cheklaydi va o'z-o'zini himoya qilishni istisno qiladi, ikkinchi yondashuv kengroq ko'rinadi, chunki u "tadbirlar majmuasi"ni qamrab oladi, ammo tashkiliy tadbirlarning mazmuni noaniq bo'lib qoladi, "me'yoriy tartib" orqali shaklni belgilaydigan uchinchi yondashuv esa ushbu toifadagi protsessual tabiatni eng aniq aks ettiradi, chunki u himoya tartib-taomilining huquqiy normalar bilan tartibga solinganligini ta'kidlaydi va himoya shakli tushunchasiga huquqlarni himoya qilishning ham yurisdiksiyaviy, ham noyurisdiksiyaviy usullarini kiritish imkonini beradi.

Muallifning fikricha, himoya shakllari va usullarini aniq chegaralashning amaliy ahamiyati sud amaliyotining tahlili bilan tasdiqlanadi, bu yerda ushbu toifalarni aralashtirish jiddiy huquqni qo'llashda xatoliklarga olib keladi, bu esa moddiy-huquqiy himoya usuli o'rniga protsessual masala sifatida zararni qoplash to'g'risidagi talablarni noto'g'ri kvalifikatsiya qilish, o'zini o'zi himoya qilishni himoya usuli yoki shakli sifatida tushunishdagi chalkashlik bilan ifodalanadi. Fuqarolik huquqlarini himoya qilish shakllari va usullarining ta'riflarini ularning funksional chegaralanishiga asoslangan holda qonunchilikda mustahkamlash, himoya qilish usullarini nafaqat ularning ro'yxati bo'yicha, balki ularni huquqbuzarliklarning har xil turlari va subyektlar toifalariga nisbatan qo'llash mezonlari bo'yicha tizimlashtirish, fuqarolik muomalasini raqamlashtirish sharoitida huquqlarni himoya qilishning an'anaviy va muqobil shakllari nisbatining nazariy asoslarini rivojlantirish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, himoya qilish usullari ro'yxati, Fuqarolik kodeksining 11-moddasida uning to'liq emasligi ko'rsatilganiga qaramay, amaliyotda huquqni qo'llovchilar tomonidan yopiq ro'yxat sifatida qabul qilinadi, bu esa nostandart vaziyatlarda huquqlarni himoya qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Aniqlanishicha, qonunchilikda himoya qilishning turli usullarini qo'llashning aniq mezonlari mavjud emasligi ularni chegaralash va muayyan huquqiy vaziyatlarda himoya qilishning eng samarali vositasini tanlash muammolarini keltirib chiqaradi.

Dissertant huquqni tan olish institutining konstitutsiyaviy va deklarativ xarakterda namoyon bo'ladigan ikki tomonlama huquqiy tabiatini ochib bergan: birinchi holatda sud qarori huquqni yaratadi, ikkinchisida esa faqat mavjud huquqni tasdiqlaydi, sud amaliyotida ushbu toifalarni aralashtirish huquq va majburiyatlarning paydo bo'lish vaqtini noto'g'ri aniqlashga olib keladi.

